



Rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etish mexanizmlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari

JDPU p.f.f.d (PhD) Ergasheva Matluba Burxonovna

Anotatsiya: «O'qitish rivojlantirish ortida, rivojlantirish o'qitishdan oldinda yuradi... Rivojlantirish va o'qitishda faollashadigan funksiyalarning takomillashuvida o'qitish roli haqida masalani qo'yish har qanday imkoniyatni inkor qilinadi. Ularning rivojlantirilishi va takomillashuvi o'qitish natijasi emas, balki ko'proq asos bo'lib hisoblanadi». O'qitish, mazkur nazariyaga ko'ra, rivojlanish ustidan hech nimani o'zgartirmagan holda quriladi.

Kalit so'zlar: o'qitish, rivojlantirish, jamoa faoliyati, individual faoliyat, bolalar rivojlanishi bilan muvofiqlashishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmoni imzolandi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot stpategiyasi va uni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi muvofiq tasdiqlandi.

Rivojlantiruvchi ta'limning asoslangan konsepsiyasi qurilishi yetarli ishlab chiqilmagan psixologik nazariya tufayli ancha qiyin kechkan edi. Rivojlatiruvchi ta'lim keyinchalik asrimiz pedagogik va psixologik fanda rivojlandi. 30-yillar boshiga kelib o'qitish va rivojlantirish o'zaronisbati haqida o'ta asosiy nazariya aniq ajratildi, ular L.S.Vigotskiy[82] tomonidan chuqur tahlil qilinib, xususan, «Maktab yoshida o'qitish va aqliy rivojlantirish muammolari» maqolasida [82] ta'riflab berilgan edi.

Shunday nazariyalardan birida asosiy qoida sifatida bolalar rivojlanishining o'qitish jarayoniga tobe emasligi haqidagi g'oya ilgari suriladi. Mazkur holda o'qitish, L.S.Vigotskiy[83] yozishicha, «hech nimaga qaramay bolalar rivojlanishi bilan muvofiqlashishi, lekin o'z-o'zidan bolalar rivojlanishida faol ishtirok etmaydigan, unda hech nimani o'zgartirmaydigan sof tashqi jarayon sifatida ko'rib chiqiladi»[83]. aksincha, shu nazariyaga ko'ra: «O'qitish rivojlantirish ortida, rivojlantirish o'qitishdan oldinda yuradi... Rivojlantirish va o'qitishda faollashadigan funksiyalarning takomillashuvida o'qitish roli haqida masalani qo'yish har qanday imkoniyatni inkor qilinadi. Ularning



rivojlantirilishi va takomillashuvi o'qitish natijasi emas, balki ko'proq asos bo'lib hisoblanadi» [83]. O'qitish, mazkur nazariyaga ko'ra, rivojlanish ustidan hech nimani o'zgartirmagan holda quriladi.

Bu nazariyaga A.Gezzel, 3.Freyd, J.Piaje va boshqalar tayangan. J.Piaje so'zlariga qaraganda, «bola fikrlashi zaruriyat bilan bola o'qitiladimi yoki yo'qmi, barcha ma'lum faza va bosqichlardan o'tadi». Bu nazariya rivojlantiruvchi ta'lim deb atalmish o'qitishni tan olmaydi. L.V.Zankov[94], J. Piaje tadqiqotlarini tahlil qilib, uning metodologik nuqtai nazarining to'g'ri kelmasligini ta'kidlaydi, unga ko'ra ijtimoiy faqatgina rivojlanish sari boradigan, lekin ichki mazmunining qayta qurilishiga ta'sir qilmaydigan qo'shimcha omil sifatida ilgari suriladi[45].

Ikkinchi nazariya, L.S.Vigotskiy[83] fikriga ko'ra, o'qitish rivojlantirishning o'zi deganligiga asoslanadi (U.Djeyms, Dj.Uotson, Ed. Torndayk, K.Koffka), o'qitish tabiati (ta'limot, o'rgatish) barcha bilan turlicha tushuniladi. Shu nazariyaga ko'ra, har qanday o'qitish rivojlantiruvchi hisoblanadi, sababi u rivojlantirish bilan qo'shib ketadi va o'qitishdagi har bir qadam asosan har xil odatlarni to'plashga keltiriladigan rivojlantirishdagi qadamga mos keladi[83].

Shunday nazariya tarafdorlari bo'lib o'qitish va rivojlantirish o'zaro nisbatini o'rganish bo'yicha maxsus tadqiqotlarni olib bormasdan amaliy tajribaga tayanadigan o'qituvchi va uslubiyatchilar ilgari suriladi.

Uchinchi nazariyada ikki birinchini bir-bir bilan birlashtirish orqali qarama-qarshi hollardan o'tishga urinish qilingan. Rivojlantirish o'qitishdan mustaqil bo'lgan jarayon sifatida tushuniladi, o'qitish jarayonida bolaning yangi hulq-atvor shakllarini egallaydigan o'qitishning o'zi esa o'xshash rivojlantirish bilan bir xil deb tushuniladi.

Bu nazariya zamonaviy rus pedagogik psixologiyasida yanada mustahkam o'rinni egallaydi. Mazkur nazariyaga ko'ra, o'qitish va tarbiyalash bolaning psixik rivojlanishida katta rol o'ynaydi, rivojlanirish esa o'qitish jarayonini tayyorlaydi va amalga oshiradi. «O'qitish rivojlantirishni yanada o'zoqroqqa surib va unda yangi hosilalarni ilgari surib, undan oldin yuradi» [83].

Mazkur nazariya o'qitish va rivojlantirish jarayonlarini ajratadi va bir vaqtda ularning chambarchas o'zaro aloqasini o'rnatadi. «O'qitishda qadam qo'yib, - L.S.Vigotskiy[83] ta'kidlashicha, - bola rivojlanishda ikki qadamga siljiydi, ya'ni bunda o'qitish va rivojlantirish bir-biriga to'g'ri kelmaydi» [83]. O'qitish va rivojlantirish, shunday qilib, birlikda turadi, bunda o'qitish rivojlanirishdan o'tib, uni rag'batlantiradi, va shu bilan bir vaqtda uning o'zi dolzarb rivojlanishga tayanadi. O'qitish «kechagiga emas, balki ertangi rivojlantirish kuniga yo'naltirilishi kerak»[83]. Bunday nuqtai nazarni nafaqat ko'pgina mamlakat pedagog va psixologlari, balki AQShdagi Bruner kognitiv psixologiyasi tarafdorlari ham qo'llab-quvvatlaydi. Dj.Bruner[78] ta'kidlashicha, «...fan asoslarini xatto oddiy darajada o'qitish bola bilish rivojlanishining tabiiy kechishiga ko'r-ko'rona tayanishi



kerak emas. O'qitish xatto shu rivojlantirishning yetakchi omiliga aylanishi mumkin va o'quvchiga o'z rivojlanishini o'ziga shakllantirishga imkoniyat berishi kerak» [78].

Barcha aytib o'tilgan nazariyalarni tahlil qilib, L.S.Vigotskiy[83] ulardan hech biriga qo'shilmaydi va o'z nuqtai nazarini quyidagi tarzda ta'riflab beradi: «Rivojlantirish jarayonlari o'qitish jarayonlariga to'g'ri kelmaydi. Birinchilar yaqin rivojlanish zonasini yaratuvchi ikkinchilar ortidan ketadi. Aynan o'qitish va biridan boshqasiga o'ta oladigan ichki rivojlanish jarayonlarining o'xshashligi emas, balki birligidir. Bundan tashqari, rivojlantirish va o'qitish jarayonlari o'rtasida yagona, oldindan berilgan aprior tajribaga asoslanmagan formula bilan o'rab bo'lmaydigan o'ta murakkab dinamik bog'liqliklar o'rnatiladi» [83].

O'z gipotezasi asoslanishining qisqa chizmasini berib, L.S.Vigotskiy[83] o'z mulohazalari asosida u bilan ta'riflab berilgan tashqi inson psixik funksiyalarini rivojlantirish fundamental qonunini ko'rgan: «Xar qanday oliy psixik funksiya bola rivojlanishida sahnada ikki marta – boshida jamoa faoliyati sifatida, ikkinchi marta esa individul faoliyat sifatida, ichki bola fikrlashi usuli sifatida paydo bo'ladi»[83]. Bu qonun, muallif fikriga ko'ra, bolalarni o'qitishda ham joriy etilishi mumkin. Muhim o'qitish tamoyili bo'lib shu narsa hisoblanadiki, u yaqin rivojlanish zonalarini yaratadi, ya'ni bolani hayotga chorlaydi, bir qator ichki rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiradi. Boshida bu jarayonlar bola uchun faqat atrofdagilar bilan o'zaromunosabatlar va o'rtoqlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin bo'ladi, lekin, rivojlanish jarayonini bartaraf etib, bola ichki mulkiga aylanib qoladi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o'qitish rivojlantirish emas, balki to'g'ri tashkil qilingan jarayon, u ortidan bolalar aqliy rivojlanishini yetaklaydi, o'qitishdan tashqarida umuman amalga oshirib bo'lmaydigan bir qator jaryonlarni hayotga chorlaydi. «O'qitish shunday qilib, bolada tabiiy emas, balki inson tarixiy xususiyatlarini rivojlantirish jarayonida ichki zaruriy va umumiy jihatdir» »[83].

L.S.Vigotskiy[83] bolani o'qitish, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda yaratiladigan yaqin rivojlanish zonalarida aniqlanadigan bola psixik funksiyalari genezisi umumiy qonuniga tayanib, o'qitish va rivojlantirish o'zaro nisbati muammosini hal etgan. Yangi psixik funksiya tashkil qilinishi o'qitishdan iborat bo'lgan jamoa faoliyatida uning bajarilishi o'ziga xos "individual davom etishi" sifatida paydo bo'ladi. Bu holda «to'g'ri tashkil qilingan» deb «rivojlantirishdan oldinga yugurib o'tadigan» o'qitish hisoblanadi. Bu holda o'qitish ichki zaruriy va umum rivojlanish ongi bo'lib chiqadi »[83].

L.S.Vigotskiy[83] ilmiy maktabining asosiy g'oyalarini tahlil qilib, A.N. Leontyev[101] ta'kidlaydiki, inson psixik rivojlanishining umumiy va zaruriy shakllari bo'lib uning tarbiyalanishi va o'qitilishi hisoblanadi. Ular tufayli inson moddiy va ma'naviy madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi.[101]

Bu ilgari yashagan insonlar yordamida o'z-o'zidan yuzaga kelgan rivojlangan faoliyat turlari va qobiliyatlarni mos qayta yaratuvchi faoliyatning o'zida amalga oshiriladi.



L.S.Vigotskiy[83] hamda uning davomchilari nazariyasiga ko'ra, bolani o'qitish va tarbiyalash jarayonlari bevosita shaxsni o'zidan o'zi rivojlantirmaydi, balki faoliyatli shakllarga ega bo'lganida va muvofiq mazmunga ega bo'lganida rivojlantiradi. Insonni o'qitish va psixik rivojlanishi o'rtasida uning faoliyati turadi. Tog'-kon-Altay pedagogika davlat universiteti pedagogika fanlari doktori A.V.Petrov ta'kidlaganidek, L.S.Vigotskiy[83] ishlarida aynan rivojlantiruvchi ta'lim deb tushuniladigan aniq-predmet ko'rinishlari keng ta'riflanmagan. Lekin bu «muayyan konsepsiya ko'rinishida birinchi kengaytirilgan holda aniqlashtirish, fan mazmuni bilan asoslash, psixologik-pedagogik va metodik tadqiqotlarni olib borish mumkin bo'lgan rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi edi»[83;]. L.S.Vigotskiyning[83] o'z istiqbolli ilmiy-amaliy ahamiyatiga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim konsepsiyasi, - V.V.Davidov[23, 88] so'zlariga ko'ra, - mazkur muammoga tegishli bo'lgan barcha nazariyalarda ancha yuqori turadi[51;].

30-yillardan boshlab rivojlantiruvchi ta'lim muammolari eksperimental holda o'rganila boshladi. Shakllantiruvchi eksperiment rivojlaniruvchi o'qitish muammolarini ishlab chiqish metodi sifatida asoslab berildi (L.S.Vigotskiy[83], A.N.Leontyev[101], A.V.Zaporozjets, P.Y.Galperin, S.L. Rubinshteyn[108] va boshqalar asarlarida). Keng eksperimental asosda L.S. Vigotskiy[83] konsepsiyalari L.V.Zankov[94] va D.B.Elkonin[117, 118] rahbarligida ikki ilmiy jamoa bilan 50-yillarning oxirida tekshirilib, qayd etildi. Shuningdek shu yillarda D.B.Elkoninga[117, 118] V.V.Davidov[88] ham qo'shildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь // Избранные педагогические исследования. - М.: Изд-во АПН РСФСР, 1956. - С. 39-328.
4. Выготский Л.С. Проблема обучения и умственного развития в школьном возрасте. И Педагогическая психология. М.: Педагогика, 1991. - С. 374-390.
5. Занков Л.В. Дидактика и жизнь. - М.: Просвещение. 1994. - 420 с.
6. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika / darslik. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009 yil. 220 b.



7. Бруннер Дж. Исследование развития познавательной деятельности. - М.: Педагогика, 2000.-391 с.
8. Леонтьев А.Н. Очерк психологии личности. – М.: «Смысл», 1997. –С. 64.

